
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI

Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: mohikomilova@gmail.com
https://orcid.org/0000-0003-3448-4712

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. «Kompetensiya», «kompetentlik» va «madaniyatshunoslik kompetensiyasi» tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining tarkibiy qismlari (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli va refleksiv) asoslanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini loyihalash, interfaol va keys-texnologiyalar, loyiha faoliyati hamda madaniyatlararo muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni qo‘llashning samaradorligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, talabalarda madaniy merosni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kasbiy faoliyatda qo‘llash, madaniyatlararo tolerantlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar belgilanadi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasi, madaniyat, madaniy meros, qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar.

ВОЗМОЖНОСТИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы и практические возможности компетентностного подхода в развитии профессиональной культурологической компетенции будущих специалистов в высших учебных заведениях. Раскрывается сущность понятий «компетенция», «компетентность» и «культурологическая компетенция». Обосновываются структурные компоненты профессиональной культурологической компетенции (мотивационно-ценностный, когнитивный,

деятельностный и рефлексивный). Показана эффективность проектирования содержания образования на основе компетентностного подхода, применения интерактивных и кейс-технологий, проектной деятельности и заданий, ориентированных на межкультурную коммуникацию. Определены педагогические условия, способствующие осмыслению культурного наследия, применению национальных и общечеловеческих ценностей в профессиональной деятельности и формированию межкультурной толерантности студентов.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, компетентностный подход, профессиональная культурологическая компетенция, культура, культурное наследие, ценности, межкультурная коммуникация, профессиональная подготовка, педагогические условия, интерактивные методы.

THE POTENTIAL OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN DEVELOPING PROFESSIONAL CULTUROLOGICAL COMPETENCE

Abstract: The article analyzes the theoretical foundations and practical possibilities of the competency-based approach in developing the professional culturological competence of future specialists in higher education institutions. The essence of the concepts «competence», «competency» and «culturological competence» is revealed. The structural components of professional culturological competence (motivational-value, cognitive, activity-based and reflexive) are substantiated. The effectiveness of designing educational content on the basis of the competency-based approach, using interactive and case technologies, project activities and tasks oriented toward intercultural communication is demonstrated. Pedagogical conditions that help students understand cultural heritage, apply national and universal values in professional activity, and develop intercultural tolerance are identified.

Keywords: competence, competency, competency-based approach, professional culturological competence, culture, cultural heritage, values, intercultural communication, professional training, pedagogical conditions, interactive methods.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadal kechayotgan davrda jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan inson kapitali sifatiga, mutaxassislarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki yuksak madaniyati, ma’naviy-axloqiy qiyofasi

hamda turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Zamonaviy mehnat bozori oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilaridan tor ixtisoslik doirasidagi tayyorgarlik bilan bir qatorda keng madaniy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, ularni kasbiy faoliyatda ijodiy qo‘llay olishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’limning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmon bilan qabul qilingan «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari alohida ta’kidlangan. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalar talabalarning madaniyatshunoslik tayyorgarligini yangi metodologik asosda takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijalarini bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning amaliy faoliyatda bilim, ko‘nikma, tajriba va qadriyatlarni integratsiyalashgan holda qo‘llay olish qobiliyati sifatida baholashga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari J.Raven, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya kabi olimlarning tadqiqotlarida, ta’limga madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashish masalalari esa Ye.V.Bondarevskaya va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan. Mamlakatimizda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari N.A.Muslimov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biroq kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilishi hamda uni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari hali yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan.

Amaliyotda esa madaniyatshunoslikka oid fanlarni o‘qitish ko‘p hollarda nazariy ma’lumotlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmoqda, talabalarning egallagan bilimlarini kasbiy vaziyatlarda qo‘llash, madaniyatlararo muloqotda faol ishtirok etish, madaniy hodisalarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Natijada ta’lim mazmuni bilan

kasbiy faoliyat talablari o‘rtasida muayyan nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Ushbu ziddiyatni bartaraf etish kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi - bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlarini aniqlash va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlar va me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Kompetensiyaviy yondashuvning umumnazariy asoslari A.V. Xutorskoy [1] va I.A. Zimnyaya [2]ning fundamental tadqiqotlarida chuqur ishlab chiqilgan. Madaniyatshunoslik yondashuvi E.V. Bondarevskaya [3]ning ishlarida asoslangan. Mahalliy pedagogika fanida Z. Tolipov [4], F. Yo‘ldoshev [5]ning ishlarida kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim tizimiga joriy etishning umumiy tamoyillari yoritilgan.

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasi mohiyatan mavhum, keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni amaliy jihatdan rivojlantirish va baholash uchun aniq metodologik asos zarur [1]. Aynan kompetensiyaviy yondashuv bunday aniqlik va amaliy yo‘naltirilganlikni ta’minlashga qodir metodologik tizim hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning umumiy afzalliklari pedagogika fanida yaxshi ma’lum bo‘lsa-da, uning aynan madaniyatshunoslik kompetensiyasiga nisbatan qo‘llanilishidagi o‘ziga xos imkoniyatlari yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan [2]. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning dolzarbligi belgilanadi [3]. Aynan kompetensiyaviy yondashuvning madaniyatshunoslik kompetensiyasiga nisbatan beruvchi o‘ziga xos imkoniyatlarini tizimli tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar mahalliy fanda hali yetarli darajada mavjud emas, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Aniq o‘quv natijalarini belgilash imkoniyati kompetensiyaviy yondashuvning eng muhim afzalligi hisoblanadi [1] - u orqali madaniyatshunoslik kompetensiyasi mavhum tushunchadan aniq, kuzatiladigan o‘quv natijalariga aylantiriladi. Diagnostika va o‘lchash imkoniyati esa kompetensiyaning rivojlanish darajasini standartlashtirilgan mezonlar orqali baholash imkonini beradi [2], bu esa talabalar rivojlanish dinamikasini ob’ektiv kuzatishga xizmat qiladi.

Modullashtirish imkoniyati kompetensiya tarkibiy qismlarini alohida, mustaqil o‘quv modullariga ajratib, moslashuvchan tarzda o‘qitish imkonini beradi [3]. Amaliyotga yo‘naltirilganlik imkoniyati esa kompetensiyani nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan qobiliyat sifatida shakllantirishni

ta’minlaydi [4]. Nihoyat, transfer imkoniyati bir sohada shakllangan kompetensiyani boshqa kasbiy vazifalarga ko‘chirib qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi [5], bu esa bitiruvchining turli pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiyaviy yondashuvning kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishdagi beshta imkoniyatini tahlil qilish jarayonida ularning mazmuni va amaliy natijasi tizimlashtirildi.

1-jadval

Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan

№	Kompetensiyaviy yondashuv imkoniyati	Mazmuni	Amaliy natija
1	Aniq o‘quv natijalarini belgilash imkoniyati	Madaniyatshunoslik kompetensiyasini mavhum tushuncha emas, balki aniq, kuzatiladigan o‘quv natijalari shaklida ifodalash	O‘quv dasturi va baholash mezonlarining aniq, shaffof bo‘lishi
2	Diagnostika va o‘lchash imkoniyati	Kompetensiyaning rivojlanish darajasini standartlashtirilgan mezon va vositalar orqali baholash	Talabalar rivojlanish dinamikasini ob’ektiv kuzatish imkoniyati
3	Modullashtirish imkoniyati	Kompetensiya tarkibiy qismlarini alohida, mustaqil o‘quv modullariga ajratib, moslashuvchan tarzda o‘qitish	O‘quv jarayonini moslashuvchan va individuallashtirilgan tarzda tashkil etish
4	Amaliyotga yo‘naltirilganlik imkoniyati	Kompetensiyani nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan qobiliyat sifatida shakllantirish	Bitiruvchining real kasbiy vaziyatlarda tayyor bo‘lishi
5	Transfer (ko‘chirish) imkoniyati	Bir sohada shakllangan kompetensiyani boshqa kasbiy vazifalarga ko‘chirib	Bitiruvchining turli pedagogik vaziyatlarda

№	Kompetensiyaviy yondashuv imkoniyati	Mazmuni	Amaliy natija
		qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish	moslashuvchan faoliyat yurita olishi

1-jadvalda keltirilgan tahlildan ko‘rinib turibdiki, kompetensiyaviy yondashuv madaniyatshunoslik kompetensiyasiga aniqlik, o‘lchanuvchanlik va amaliy yo‘naltirilganlik baxsh etadi. Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil kompetensiyaviy yondashuvning bu boradagi salohiyati yuqori ekanligini tasdiqladi.

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish masalasini tahlil qilishda, avvalo, ushbu tushunchaning mazmunini aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda «kompetensiya» tushunchasi shaxsga oldindan qo‘yiladigan, uning muayyan sohadagi sifatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va faoliyat usullari majmui sifatida, «kompetentlik» esa shaxsning ushbu kompetensiyani amalda egallaganlik darajasi, ya’ni uning shaxsiy sifati sifatida talqin etiladi. Mazkur farqlash kompetensiyaviy yondashuvning asosiy g‘oyasini - ta’lim natijasini «nimani biladi?» degan savoldan «nimani qila oladi va qanday qadriyatlarga tayanadi?» degan savolga ko‘chirishni aniq ifodalaydi.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, madaniyatshunoslik kompetensiyasi ko‘pincha umummadaniy kompetensiya bilan aynanlashtiriladi. Bizning fikrimizcha, bu ikki tushuncha o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, bir xil emas. Umummadaniy kompetensiya shaxsning madaniy hayotga umumiy tayyorgarligini ifodalasa, kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasi mutaxassisning madaniyat haqidagi bilimlarini, madaniy hodisalarni tahlil qilish va baholash qobiliyatini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bevosita kasbiy vazifalarni hal etishda qo‘llay olishini nazarda tutadi. Shu asosda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini mutaxassisning madaniyat qonuniyatlari, milliy va jahon madaniy merosi haqidagi bilimlariga, qadriyatli munosabatga va madaniyatlararo muloqot tajribasiga tayangan holda kasbiy faoliyatda madaniy hodisalarni anglash, talqin qilish va ijodiy qo‘llash qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifat sifatida ta’riflash maqsadga muvofiq.

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining tarkibiy tuzilishini quyidagi komponentlar orqali ifodalash mumkin:

2-jadval

Komponent	Mazmuni	Rivojlanganlik ko‘rsatkichlari
Motivatsion-qadriyatli	Madaniyatga, madaniy merosga qiziqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilish	Madaniy faoliyatga ijobiy motivatsiya, qadriyatli yo‘nalganlik, tolerantlik
Kognitiv	Madaniyat nazariyasi, tarixi, madaniyat turlari va shakllari, milliy madaniyat xususiyatlari haqidagi bilimlar tizimi	Bilimlarning to‘liqligi, tizimliligi va chuqurligi
Faoliyatli	Madaniy hodisalarni tahlil qilish, madaniyatlararo muloqot, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish ko‘nikmalari	Bilimlarni kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish, muloqot samaradorligi
Refleksiv	O‘z madaniy faoliyatini baholash, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish	Tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va takomillashtirish

Ushbu komponentlar alohida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi. Masalan, kognitiv komponent yetarli darajada shakllangan, ammo motivatsion-qadriyatli komponent sust bo‘lgan talabada bilimlar formal xususiyat kasb etadi va kasbiy faoliyatga ko‘chirilmaydi. Shu sababli kompetensiyaviy yondashuvning afzalligi aynan barcha komponentlarni yaxlit holda rivojlantirishga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuvning kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, ta’lim mazmunini kompetensiyalar asosida loyihalash imkoniyati. Madaniyatshunoslik fanlarining o‘quv dasturlarida kutilayotgan natijalar bilimlar ro‘yxati shaklida emas, balki talaba bajara oladigan harakatlar («madaniy hodisani tarixiy kontekstda tahlil qiladi», «milliy an’anani kasbiy loyihada qo‘llaydi» va h.k.) shaklida ifodalanishi lozim. Bu o‘qituvchini ham, talabani ham amaliy natijaga yo‘naltiradi.

Ikkinchidan, fanlararo integratsiya imkoniyati. Madaniyatshunoslik bilimlarini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash talabalarga madaniyatni abstrakt nazariy tushuncha sifatida emas, balki kasbiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida idrok etishga yordam beradi.

Uchinchidan, faol va interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyati. Keys-stadi metodi orqali talabalar madaniyatlararo nizo yoki madaniy merosni muhofaza qilish bilan bog‘liq real vaziyatlarni tahlil qiladi; loyiha metodi madaniy-ma’rifiy tadbir yoki virtual muzey ekspozitsiyasini ishlab chiqish orqali faoliyatli komponentni rivojlantiradi; munozara, «Debat», «Aqliy hujum» kabi metodlar tanqidiy fikrlash va o‘z pozitsiyasini asoslash ko‘nikmalarini shakllantiradi; rolli o‘yinlar esa madaniyatlararo muloqot tajribasini modellashtirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, ta’limni auditoriyadan tashqari muhit bilan bog‘lash imkoniyati. Muzeylar, tarixiy-madaniy obidalar, teatrlar va madaniyat markazlariga tashriflar, ekspeditsiyalar, ustoz-shogird an’analari bilan tanishish talabalarning madaniy merosni bevosita idrok etishiga, egallangan bilimlarning shaxsiy tajribaga aylanishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, natijalarni baholash tizimini takomillashtirish imkoniyati. Kompetensiyaviy yondashuv an’anaviy test sinovlari bilan bir qatorda portfolio, loyiha himoyasi, keys yechimi, esse va refleksiv kundalik kabi baholash vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday baholash talabaning nafaqat bilim darajasini, balki qadriyatli munosabati va amaliy tayyorgarligini ham aniqlash imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi: o‘quv soatlarining cheklanganligi, ayrim professor-o‘qituvchilarning kompetensiyaviy yondashuv asosida dars loyihalash bo‘yicha metodik tayyorgarligining yetarli emasligi, madaniyatshunoslik kompetensiyasini baholash mezonlarining hali yagona tizimga keltirilmaganligi. Ushbu muammolarni hal etish uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslariga tegishli modullarni kiritish, o‘quv-metodik majmualarni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqish hamda baholash mezonlarini standartlashtirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuv kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodologik asosi bo‘lib, u ta’lim mazmuni, metodlari va baholash tizimini yaxlit holda kasbiy faoliyat talablariga moslashtirish imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda aniq natijalarni belgilash, diagnostika, modullashtirish, amaliyotga yo‘naltirilganlik va transfer imkoniyatlarini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu imkoniyatlarga asoslangan aniq diagnostik vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. - М.: Народное образование, 2003. - 58 с.

2. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. - 40 с.

3. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. - Ростов-на-Дону: Изд-во РГПУ, 2000. - 352 с.

4. Tolipov Z.T. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish. - Toshkent: Fan, 2013. - 184 b.

5. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuv. - Toshkent: O‘qituvchi, 2011. - 216 b.

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna